

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>X.M.Matqulov</b>	
Nominative field of the concept "Wrestling" in English and Uzbek.....	372
<b>D.M.Uktamovna</b>	
“Mehrobdan chayon” va “Tanazzul” romanlarida tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima uyg‘unligi ...	377
<b>M.B.Siddiqov</b>	
Urush nogironlarini ishga joylashtirishda tibbiy mehnat ekspert komissiyalarning roli.....	381
<b>S.S.Abdullayev, D.M.Obidova</b>	
Yoshlarni ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimi .....	387
<b>R.I.Madaliyev</b>	
Artpedagogika vositasida (teatr sa‘nati orqali) talaba yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirish omillari va istiqbollari .....	391
<b>D.Z.Xudaykulova</b>	
Bolalarning mustaqil badiiy faoliyatlariga rahbarlik qilish metodlari.....	395
<b>Sh.A.Dosbayeva</b>	
Mantiqiy fikrlash mashg‘ulotlarining didaktik ta‘minotini takomillashtirish.....	402
<b>D.A.Xomidova</b>	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarning dizayn faoliyatini rivojlantirish.....	408
<b>B.S.Sharipova</b>	
Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarini o‘quvchilarda bioetik bilimlarni shakllantirishga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati.....	412
<b>T.S.Axmedova</b>	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida “Ilk qadam” davlat dasturidan foydalanish .....	416
<b>N.M.Aliyev</b>	
Gipotetik-deduktiv metod orqali bo‘lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli .....	420
<b>A.E.Normatov</b>	
Neft va neft mahsulotlari bilan ifloslangan oqava suvlarini suv o‘simliklari yordamida tozalash .....	425
<b>I.O.Umarov</b>	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida harbiy ta‘lim talabalarida o‘quv-jangovar sifatlarini rivojlantirish metodikasi .....	428
<b>X.A.Madaminov</b>	
Musobaqa faoliyati sharoitlarida kurashchilarning texnik-taktik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ishonchligi muammosi.....	433
<b>B.Q.Qurbonova, M.Esonmirzayeva</b>	
Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni tarbiya fani asosida milliy kasibga yo‘naltrishning usul va metodlari.....	437
<b>S.M.Boboraximov</b>	
Kichik sinf o‘quvchilarining jismoniy tarbiyasida klasterli tabaqalashtirilgan yondashuvdan foydalanish zarurati.....	441
<b>N.A.Akbarova</b>	
Farg‘ona viloyati musiqa maktablarining respublika va xalqaro tanlovlardagi ishtiroki va natijalari .....	445
<b>A.A.To‘raxanov, A.A.Ergashev</b>	
Alohida ta‘lim ehtiyojiga ega o‘quvchilar muhitida autizm sindromli bolalar bilan ishlashning klaster mexanizmlari .....	450
<b>M.M.Abdurahmonova, M.Suyumova</b>	
Umumta‘lim muassasalarida ijtimoiy ish amaliyotini amalga oshirish (Rossiya Federatsiyasi misolida).....	457



UO'K: 372.1:371+141.3

**МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARIDA "ILK QADAM" DAVLAT DASTURIDAN FOYDALANISH****ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПРОГРАММЫ «ПЕРВЫЙ ШАГ» В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ****USE OF THE STATE PROGRAM "FIRST STEP" IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS****Axmedova Turg'unoy Sultonali qizi** 

Farg'ona davlat universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimi rivojlanishining hozirgi kundagi holati va sohada olib borilayotgan islohotlar haqida ma'lumotlar berilgan. Bola rivojlanishi jarayonida "ilk qadam" davlat o'quv dasturining maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'llanilishi va uning bugungi kundagi ahamiyati haqida ma'lumotlar yoritib berilgan. "Ilk qadam" davlat dasturining har bir maktabgacha ta'lim tashkilotida amaliyotga tatbiq etilishi bugungi kundagi sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni ma'lum tizimga soluvchi omil sifatida faoliyat olib boradi.

**Abstract**

This article provides information on the current state of development of the preschool education system and the reforms being carried out in the field. In the process of child development, information about the use of the "First Step" state curriculum in pre-school educational institutions and its importance today has been highlighted. The implementation of the state program "First Step" in every preschool education organization acts as a factor that brings the reforms implemented in the field into a certain system today.

**Аннотация**

В данной статье представлена информация о современном состоянии развития системы дошкольного образования и реформах, проводимых в этой сфере. В процессе развития ребенка освещены сведения об использовании государственной программы «Первый шаг» в дошкольных образовательных учреждениях и ее значении на сегодняшний день. Реализация государственной программы «Первый шаг» в каждой организации дошкольного образования выступает фактором, который сегодня приводит реализуемые в сфере реформы в определенную систему.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim, konsepsiya, "ilk qadam" dasturi, bola rivojlanishi, malaka, inklyuziv, psixologik, fiziologik

**Key words:** Pre-school education, concept, First Step program, child development, competence, inclusive, psychological, physiological

**Ключевые слова:** Дошкольное образование, концепция, программа «Первый шаг», развитие ребенка, компетентность, инклюзивная, психологическая, физиологическая.

**KIRISH**

"Agar mendan sizni nima qiynaydi?" deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman. Ushbu gapni prezidentimiz Sh.Mirziyoyev bejiz so'zlamagan. Negaki, kelajagimiz o'sib ulg'ayotgan yoshlar qo'lida. Ularga o'z vaqtida ta'lim va tarbiya bersak kelgusida ulardan biz kutgan natijalarni ko'rishimiz mumkin. Darhaqiqat mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim sohasida katta islohotlar amalga oshirilmogda. Shu asnoda Maktabgacha ta'lim sohasi ham alohida e'tiborga olinib, yosh avlod tarbiyasining eng quyi pog'onasi hisoblanishiga qaramay naqadar katta e'tibor berilayotganligi ahamiyatga molikdir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori, 2019-yil 10-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil

## ILMIY AXBOROT

30-sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” PF-5198-sonli farmoni, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar Strategiyasi to’g’risida”gi PF-4947-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to’g’risida” 802-sonli qarori va mavzuga bevosita bog’liq bo’lgan BMTning bolalar jamg’armasi YUNISEFning O’zbekistondagi vakolatxonasi texnik ko’magi yordamida yaratilgan maktabgacha ta’lim muassasalarining “Ilk qadam” Davlat o’quv dasturi yuqoridagi so’zlar namunasidir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI**

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga ta’lim va tarbiya berish hamda “Ilk qadam” davlat dasturi doirasidagi ishlar ijrosi bo’yicha ko’plab olimlar fundamental tadqiqotlarni olib borganlar. Xorij tadqiqotchilari A.A.Markov, A.A.Lyapunov, V.Dobulov va boshqalar tomonidan ham ushbu tizimning doziarb muammolari o’rganilib chiqilgan.

O’zbekistonda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida interfaol metodlarni amalga oshirishning metodik ahamiyatini shakllantirish vazifalarini o’rganishning muammolarini F.B.Valixo’jayeva, Z.Rahimova, N.Egamberdiyeva, S.K.Annamuratova, S.Bulatov, SH.Munavvarov, H.Nurmatov, A.Sulaymonov va boshqa tadqiqotchilar o’rganganlar.

**TADDIQOTLAR METODOLOGIYASI**

Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga qo’yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishish “Ilk qadam” davlat o’quv dasturi asosida amalga oshiriladi. Davlat talablari asosida tuzilgan “Ilk qadam” davlat o’quv dasturiga asosan maktabgacha yoshdagi bolalarning ota-onalari, tarbiyachilari hamda o’zlari uchun turli sohalar bo’yicha dasturlar, qo’llanmalar, tavsiyalar, qiziqarli kitoblar, aqlan va jismonan rivojlantirishga yordam beradigan turli-tuman o’yinchoqlar va ta’lim-tarbiya qurollari yaratiladi.

Yosh avlodni tarbiyalash va o’qitish maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan boshlanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiya ishini davr talabi darajasida olib borish maqsadida “Ilk qadam” davlat o’quv dasturi tuzilgan. O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi bu dasturni respublikamizning o’ziga xos tomonlarini: iqlimi, jug’rofiy, iqtisodiy, madaniy, milliy sharoitlarini hisobga olib, uni qayta ishlab chiqdi. Dastur tug’ilib to yetti yoshga yetgungacha bo’lgan bolalar egallashi lozim bo’lgan bilim va malakalar hajmini o’z ichiga oladi. “Ilk qadam” davlat o’quv dasturi maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning psixologik-fiziologik va o’ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda ularni har tomonlama kamol toptirishni nazarda tutadi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar, asosan, maktab ta’limiga maktabgacha ta’lim tashkilotlarida va oilada tayyorlanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni rivojlantirish va maktab ta’limiga tayyorlash 3 bosqich asosida amalga oshiriladi.

1. Bolalarni nutqini rivojlantirish.
2. Jismonan rivojlantirish.
3. Ma’nan rivojlantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo’yiladigan davlat talablari sog’lom va yetuk, maktabga, o’qishga tayyorlangan tarzda shakllantirib borishdan iboratdir.

Ilmiy jihatdan asoslangan aniq pedagogik rejaning mavjudligi pedagog ishini yengillashtirib, uning ijodiy imkoniyatlarini oshiradi. Kreativ yondashishga harakat qilishga poydevor sifatida yordam beradi. Ta’lim-tarbiya ishini rejalashtirish pedagog, bolalar jamoasi va ota-onalarning o’zaro hamkorligiga, ular tomonidan birgalikdagi faoliyat maqsad va vazifalarini tahlil etishga asoslanadi.

O’zbekiston Respublikasining maktabgacha ta’limga qo’yiladigan Davlat talablari, bolalarni qisqa muddatli guruhlarda maktabga tayyorlash “Ilk qadam” davlat o’quv dasturi pedagoglar uchun yangi imkoniyatlarni vujudga keltiradi, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayonini tashkil etishda qo’llanilayotgan eski shakl va uslublarni qayta ko’rib chiqishga undaydi, pedagogik tashabbus, tajriba va ijodga keng yo’l ochib beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning asosiy maqsad va vazifalari bolalarni jismoniy va aqliy jihatdan rivojlantirish, ularning ruhiyat, shaxsiy qobiliyatlari, intilish va ehtiyojlarini qondirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, mustaqillik g’oyalariga sodiq holda

voyaga yetib borishini ta'minlash, ularni maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yilgan davlat talablariga muvofiq maktab ta'limiga tayyorlashdan iborat. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishish "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida amalga oshiriladi

Bola hayotidagi muhim sanalgan maktabgacha ta'lim tizimida bir qancha hal etilishi va yechimini topishi zarur bo'lgan masalalar mavjud:

- Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga to'la qamrab olish;
- Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiya jarayonini hozirgi zamon talablariga javob beraoladigan tarzda tashkil etish;

- Mashg'ulotlarni interaktiv tarzda, qiziqarli o'tishini ta'minlash.

2018-yildan maktabgacha ta'lim sohasi uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi davlat talablariga asoslangan va respublikadagi barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari yangi dastur bilan tanishtirilgan.

Davlat o'quv dasturining tahrirlangan ikkinchi nashrining asosiy jihatlari uning muqobilligi, moslashuvchanligi, individual xususiyatlarni hisobga olgan holda har bir bolaning ta'lim ehtiyojlariga qaratilganligidir.

Davlat o'quv dasturini amalga oshiruvchi pedagog bolaning shaxsiga hurmat ko'rsatishi va ta'lim-tarbiya jarayonini dastur tamoyillariga muvofiq tashkillashtiradi. Bolalarning ta'lim-tarbiya olishida pedagog fasilitator sifatida o'z bilim, ko'nikma va resurslaridan foydalanadi, bolalarning har tomonlama rivojlanishiga va ularning salohiyatlarini ochishga hissa qo'shadigan rivojlantiruvchi muhitni yaratadi. Buning uchun pedagog bolaning rivojlanish xususiyatlarini biladi, uning his-tuyg'ularini tushunadi. Har bir bolaning ehtiyojlari va qiziqishlarini aniqlab hisobga oladi. Pedagog guruhda shunday inklyuziv muhit yaratishi kerakki, unda har bir bola o'zini ardoqli, qobiliyatli va ta'lim jarayoniga jalb qilingandek his qilishi lozim. U bolalarning mustaqil harakat qilishi, natijalarga erishishi va yutuqlarini amalga oshirishi hamda ulardan zavqlanish qobiliyatlarini rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Pedagog doimiy ravishda kasbiy kompetentligini takomillashtirib borishi, kasbiy faoliyatini hujjatlashtirishi, tahlil qilib baholab borishi kerak. U bolalarning, ota-onalarning va mahalliy jamoatchilik vakillarining fikri va tajribasini hurmat qilib, o'z ishini teng sheriklik asosida qurishi lozim.

### NATIJA

Yuqoridagi tahlillar va dastur tarkibini o'rganish natijasida ushbu jihatlarni aniqlandi: bolalarni savodxonlikka o'rgatishda davlat talablarining o'rni alohida ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar maktabgacha ta'lim tizimi hamda oilalarda bolani to'laqonli tarbiyalash, ta'lim berish va rivojlantirish, uni maktabga samarali tayyorlashda qo'llanishi majburiy bo'lgan davlat hujjati bo'lib hisoblanadi. Davlat talablari 0-7 yoshli bolaning qay darajada rivojlanganligi va egallagan yutuqlarini baholab boruvchi talablar bo'lib, ular bilim, malaka va ko'nikmalar rivojlanishining ko'rsatkichlarini belgilaydi:

1. Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;
2. Ijtimoiy - hissiy rivojlanish.
3. Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari.
4. Bilish jarayonining rivojlanishi.
5. Ijodiy rivojlanish.

Mazkur 5 ta yo'nalish 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning o'z-o'ziga xizmat ko'nikmalarining shakllanishi, nutq, o'qish va savodga tayyorlash darajasini, atrof-olam haqidagi tushunchalarni va qo'yilgan talablarni egallashi uchun asosiy omil hisoblanadi. U maktabgacha ta'lim tizimining mohiyatini belgilaydi va maktabgacha ta'lim tashkilotlarini mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, barcha bolalarning tengligi va bolalik qadriyatini saqlagan holda har bir bolaning individual (alohida) rivojlanishini ta'minlashga yo'naltiradi.

### XULOSA

Davlat o'quv dasturi bolaning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga qaratilgan bo'lib, ta'lim va tarbiya jarayonining maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, kutilayotgan natijalari, mazmuni va tashkil

## ILMIY AXBOROT

etilishini belgilaydigan tayanch hujjat hisoblanib, maktabgacha ta'lim tizimida ushbu dasturni qo'llash umumiy miqyosdagi amaliy tajriba hisoblanadi va ushbu tizimni qo'llashda mamlakatimizdagi boshqa ta'lim tizimlari va ijtimoiy institutlarning integratsion faoliyati zarurdir. Zero bir bolaga yetti mahalla ota-ona degan naql bejizga xalqimiz orasida mashhur emas. Shu nuqtai nazardan "Ilk qadam" davlat dasturining har bir maktabgacha ta'lim tashkilotida amaliyotga tadbiiq etilishi bugungi kundagi sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni ma'lum tizimga soluvchi omil sifatida faoliyat olib boradi. Ushbu dastur asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning tayanch kompetensiyalari va rivojlanish sohalarining kompetensiyalarini shakllantirib, rivojlantiriladi. Davlat o'quv dasturi barcha bolalar, shu jumladan, alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarning individual xususiyatlari, kuchli tomonlari, qiziqishlari, qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim olish, rivojlanish va muloqotda qo'shimcha yordam ko'rsatishga mo'ljallangan.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M.Mirziyoyevning "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli farmoni. *T.: 2017-y., 30-sentyabr*
2. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. *T.: 2016 y., 29-dekabr*
3. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotlarining Davlat o'quv dasturi (2022) Takomillashtirilgan ikkinchi nashri, *T.*
4. Sh.M.Mirziyoev (2017) "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz", *T., , 488*
5. D.Q.Asqarova (2020) "Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi" (o'quv qo'llanma) *T., 11*
6. N. Egamberdieva (2009) "Ijtimoiy pedagogika" *T.: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti*
7. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, M.A'zamova (2013) Maktabgacha pedagogika. *T.: "Ma'naviyat".*
8. Sh.A. Sodiqova (2013) Maktabgacha pedagogika. *T.: Tafakkur sarchashmalari*
9. M.Roziqova, K.Umarova, N.Murodova (2013) Maktabgacha ta'lim muassasalarining tarbiyalanuvchilari uchun rivojlantiruvchi o'yinlar majmuasi. *T.*
10. T.S.Axmedova (2024) The impact of games on the development of pre-school children. *FarDU ilmiy xabarlar, 2-son 416-419*